


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN OTORINOLARINGOLOGIYA VA
BOSH-BO'YIN KASALLIKLARI ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI
O'ZBEKISTON OTORINOLARINGOLOGIYASI VA BOSH-BO'YIN
JARROHLIGI ASSOTSIATSIYASI**



**“YANGI O'ZBEKISTON DAVRIDA OTORINOLARINGOLOGIYADAGI
YUTUQLAR” MAVZUSIDAGI O'ZBEKISTON
OTORINOLARINGOLOGLARINING VI SYEZDI
MATERIALLARI**

16-18 oktabr, 2025-yil, Samarqand

МАТЕРИАЛЫ

**VI СЪЕЗДЕ ОТОРИНОЛАРИНГОЛОГОВ УЗБЕКИСТАНА НА ТЕМУ
«ДОСТИЖЕНИЯ ОТОРИНОЛАРИНГОЛОГИИ В ЭПОХУ НОВОГО
УЗБЕКИСТАНА»**

16-18 октября 2025 года, Самарканд

MATERIALS

**VI CONGRESS OF OTORHINOLARYNGOLOGISTS OF UZBEKISTAN
ON THE TOPIC «ADVANCES IN OTORHINOLARYNGOLOGY IN THE
ERA OF NEW UZBEKISTAN»**

October 16-18, 2025, Samarkand

Mirzatillayeva M.A., Bakiyeva Sh.X. <i>Clinical and functional features of diagnosis and treatment of chronic tonsillitis</i>	213
Nishonboev L.S., Xasanov A.I., Shukurov Z.I. <i>Og'iz bo'shlig'i maxalliy tarqalgan saratonida kompleks davolashning yangicha yondashuvi</i>	214
Radjabov A.H., Pardayev F.M., Shodiyev J.A. <i>Turli yoshdagi bolalarda surunkali rinosinusitning tarqalish darajasi va klinik belgilari</i>	215
Rasulova N.Sh., Haydarova G.S., Xodjayeva D.M. <i>Hiqildoqning o'simtasimon kasalliklarida hiqildoqning akustik tahlili</i>	216
Rasulova N.Sh., Xaydarova G.S. <i>Hiqildoq ovoz boylamlari kista va tugunlarining tashxislashni takomillashtirish</i>	217
Shamsiev Dj.F., Tastanova G.E., Abdusamatova I.I. <i>Influence of nasopharynx obstruction and adenotonsillary system hypertrophy on changes in chefface proportions in children</i>	218
Shamsiev D.F., Sultonov D.M., Rajabov D.B., Jurakulov S.Z. <i>Occupational daytime working schedules as a risk factor for obstructive sleep apnea in office-based employees</i>	219
Shaumarov A.Z., Djurayev J.A. <i>Morphological features in different forms of chronic tonsillitis</i>	220
Shaumarov A.Z., Djurayev J.A. <i>Comprehensive treatment of patients with different forms of chronic tonsillitis</i>	220
Sultonov D.M., Kyu-Sung Kim, Young Hyo Kim, Hyelim Park. <i>Therapeutic potential of intermittent hypoxia in mitigating allergic rhinitis and asthma via mapk pathway modulation</i>	221
Uktamov D.Sh. <i>Endoskopik sheyver adenotomiyasi: zamonaviy yondashuvning afzalliklari</i>	221
Абдуллаева Н.Н., Фархатов М.Б. <i>Реконструкция дефектов гортани: обзор современных методов</i>	222
Алиева М.У., Наджмутдинова Н.Ш., Абдукаюмов А.А., Иноятова Ф.И. <i>Анализ акустических параметров голоса джигиттер и шиммер у детей с дисфонией после операции на гортани</i>	223
Ашурова Д.Д., Джамбекова Г.С., Ашуров А.М. <i>Аденоидная вегетация и аллергия</i>	224
Болаткан А.К., Карымсакова С.Ж. <i>Реабилитация после микрохирургии гортани: методы восстановления голосовой функции и улучшения качества жизни после операций на гортани</i>	225
Быков Ю.В., Беккер Р.А. <i>Устранение обструкции верхних дыхательных путей как поворотный момент в лечении резистентной депрессии: клиническое наблюдение</i>	227
Быков Ю.В., Беккер Р.А. <i>Клиническое наблюдение: роль санации хронического очага в области верхних дыхательных путей в терапии резистентного орофациального невропатического синдрома</i>	228
Вохидов У.Н., Шерназаров О.Н. <i>Ҳиқилдоқнинг хавфсиз ўсмаларида овоз функциясини акустик баҳолашнинг клиник аҳамияти</i>	229
Гасымов А.В., Панахиан В.М., Абилова Ф.А., Гусейнова М.А. <i>Целесообразность проведения абсцесстонзилэктомии по данным нашей клиники</i>	231
Егоров В.И., Беляева А.П. <i>Но-терапия в послеоперационном ведении пациентов с паратонзиллярным абсцессом.</i>	232
Егоров В.И., Беляева А.П. <i>Наш взгляд на проблему хирургического лечения ронхопатии.</i>	233
Ивкина А.В. <i>Деканюляция пациентов.</i>	234

HIQILDOQNING O'SIMTASIMON KASALLIKLARIDA HIQILDOQNING AKUSTIK TAHLILI

Rasulova N.Sh., Haydarova G.S., Xodjayeva D.M.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, O'zbekiston, Toshkent

Dolzarbligi. Tovush buzilishlari ikki turga bo'linadi: organik va funksional. Shunga qaramay, amaliy tibbiyotda disfoniya bilan og'rigan bemorlarda bu ikki holatning birgalikda uchrashi tez-tez kuzatiladi. Bunday hollarda aynan qaysi komponent – organikmi yoki funksional – disfoniya klinik ko'rinishida ustunlik qilayotganini aniqlash qiyin bo'ladi, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Arnold G.E. fikriga ko'ra, tovush paychalaridagi hiqildoqning o'simtasimon kasalliklari – poliplar, tugunlar va kistalar – patologik bo'lib, haddan tashqari kuchli fonatsiya natijasida rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida ovoz apparatida ikkilamchi funksional o'zgarishlar rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ovoz funksiyasining akustik baholanishi – bu hiqildoqdagi turli kasalliklarda, jumladan o'simtasimon kasalliklarda ham, diagnostika uchun muhim usul hisoblanadi. Ovoz xususiyatlaridagi o'zgarishlar hiqildoqidagi funksional muammolarni erta aniqlashda ishonchli ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ovozda eng kichik o'zgarishlarni ham aniqlash imkonini beradi, bu esa ovoz apparati patologiyalarini erta aniqlash samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda hiqildoqning havsiz va o'simtasimon kasalliklarini diagnostikasi ko'pincha murakkablik tug'dirmaydi. Objektiv tekshiruvlar qatorida fibrolaringoskopiya, videolaringostroboskopiya va disfoniya sabablarini aniqlash hamda og'irlik darajasini baholash maqsadida akustik tahlil keng qo'llanilmoqda. Akustik tahlil ovoz signalining xususiyatlarini o'rganish va sifatini baholash imkonini beradi. Bu usulda tovush balandligi, chastotasi, amplitudasi, intensivligi va davomiyligi kabi parametrlar baholanadi.

Kompyuter akustik tahlili ovozning spektral tarkibi, chastota va dinamika diapazonlarini nutq va vokal mahsulotlarda ob'ektiv baholashga imkon beradi. Muhim ko'rsatkichlardan biri bu – Disfoniya indeksi (DSI) bo'lib, u maksimal asosiy ton chastotasi, minimal fonatsiya intensivligi, maksimal fonatsiya davomiyligi va chastota variatsiyasi (Jitter) asosida hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Jitter, Shimmer va HNR kabi parametrlar hiqildoq patologiyasini aniqlashda sezgir ko'rsatkichlardir. Hiqildoqning o'simtasimon kasalliklarida bu ko'rsatkichlarda keskin og'ishlar kuzatiladi, bu esa tovush paychalari vibratsion funksiyasining buzilganidan dalolat beradi.

"Lingwaves" kabi dasturiy vosita yordamida akustik tahlil uslublari standartlashtiriladi va nutq buzilishlarini diagnostika qilishning ishonchliligi ortadi.

Tadqiqot maqsadi. Hiqildoqning o'simtasimon kasalliklarida ovozning akustik parametrlarining diagnostik va differensial-diagnostik ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari

1. Hiqildoqning o'simtasimon kasalliklarida akustik parametrlar o'zgarish xususiyatlarini o'rganish.

2. Akustik tahlil natijalarini morfologik tadqiqot va klinik manzara bilan solishtirish.

Materiallar va usullar

Hiqildoqning o'simtasimon kasalliklari bilan 20 nafar bemor tekshirildi. 15 nafar sog'lom ko'ngilli nazorat guruhiga kiritildi. Akustik baholash "Lingwaves" dasturiy ta'minoti orqali amalga oshirildi. Quyidagi parametrlar qayd etildi:

- Jitter (%),
- Shimmer (%),
- Harmonics-to-Noise Ratio (HNR),
- Pitch (o'rtacha fonatsiya chastotasi).

Ovoz yozuvi ovoz o'tkazmaydigan xonada kondensatorli mikrofon yordamida yozib olindi. Nutq signali sifatida 5 soniya davomida "a" unlisining vokalizatsiyasi ishlatildi. Morfologik tekshiruv esa biopsiya materiali asosida o'tkazildi.

Jitter, Shimmer va HNR ko'rsatkichlari diagnostik jihatdan eng informativ deb topildi. Jitter va Shimmerning yuqori darajalari ovozning beqarorligini, HNRning pasayishi esa ovozning shovqinli bo'lishini ko'rsatadi. Sog'lom va bemorlar o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan ishonchli deb topildi ($p < 0,01$).

Natijalarni muhokamasi

Akustik tahlil xalqaro miqyosda tan olingan va hiqildoq kasalliklarida ovoz funksiyasini baholash uchun muhim usuldir. Bu usul ovoz o'zgarishlari bilan patologiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniq aks ettiradi. Usul invaziv emas, bemorlarda dinamik kuzatuv o'tkazishga, biopsiya yoki jarrohlik qarorlarini qabul qilishda yordam beradi.

Xulosa

1. Akustik tahlil hiqildoqning o'simtasimon kasalliklarida xos ovoz o'zgarishlarini aniqlash imkonini beradi.
2. Jitter, Shimmer va HNR parametrlari ovozboylamlari vibratsiyasidagi buzilishlarni aks ettiradi.
3. Bu usul istiqbolli, invaziv bo'lmagan diagnostika yondashuvi sifatida kompleks tekshiruvlarga kiritilishi mumkin.

HIQILDOQ OVOZ BOYLAMLARI KISTA VA TUGUNLARINING TASHXISLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Rasulova N.Sh., Xaydarova G.S.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, O'zbekiston, Toshkent

Dolzarbli. Ovoz boylamlari patologiyalari, xususan, kistalar va tugunlar otorinolaringologiyada muhim muammo hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, ovoz apparati kasalliklari katta yoshdagi aholining 3-7 foizida uchraydi. Ular orasida yaxshi sifatli hosilalar, jumladan, ovoz boylamlari kistalari va tugunchalari yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Qiyosiy tashxislashning qiyinchiliklarini hisobga olgan holda, o'z vaqtida va aniq tashxis qo'yish zarurati juda yuqori.

Diagnostikaga yondashuvlarni takomillashtirish nafaqat tashxis qo'yishning aniqligini oshirish, balki aralashuvning invazivligini minimallashtirish, samarali davolash taktikasini tanlashni tezlashtirish imkonini beradi. Ular ko'pincha doimiy xirillash, fonatsiyaning buzilishi, bemorlarning, ayniqsa kasbiy faoliyati ovoz zo'riqishi bilan bog'liq bo'lganlarning hayot sifatining yomonlashishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy texnologiyalar va klinik yondashuvlarni hisobga olgan holda hiqildoqning tovush boylamlari kistalari va tugunlari diagnostikasini optimallashtirish usullarini tadqiq qilish va asoslashdan iborat.

Tadqiqot maqsadi. Ovoz boylamlari kistalari va tugunlarini tashxislash aniqligini oshirishga qaratilgan samarali diagnostik chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va asoslash.

Tadqiqot vazifalari

1. Ovoz boylamlari kista va tugunchalarining klinik va morfologik xususiyatlarini o'rganish.
2. Ushbu patologiyalarni tashxislashning mavjud usullarini tahlil qilish.
3. Diagnostikaning eng ma'lumotli va qulay usullarini aniqlash.

Materiallar va usullar. Tadqiqotga 2024-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda otorinolaringologiya TTA ko'p tarmoqli klinikasida ovoz boylamlarining xavfsiz hosilalariga shubha qilingan 23 nafar bemor kiritilgan. Tadqiqotda yoshi 40 dan 60 yoshgacha bo'lgan bemorlar qatnashgan. Bemorlarga quyidagi diagnostik algoritim qo'llanildi:

1. 2 haftadan ortiq xirillashi bo'lgan bemor → birlamchi ko'rik (bevosita va bilvosita laringoskopiya);
2. Patologik o'zgarishlar aniqlansa → hosil bo'lish xarakteriga aniqlik kiritish uchun